



SAMARQAND VILOYAT
PEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH
VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI
“MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA‘LIM
KAFEDRASI” MTM


1-GURUH TINGLOVCHISI

AMINOVA GULCHEXRANING TAYYORLAGAN

MASHG‘ULOT ISHLANMASI

Katta guruh

*MAVZU: Maxsus shakillardan to‘plamidan foydalanib
namunadagi narsalarni xosil qilishga o‘rgatish.*



**Mashg`ulotning mavzusi:** Maxsus shakillar to`plamidan foydalanib, namunadagi narsalarni xosil qilishga o`rganish.

Soat: 20-25 daqiqa

Katta guruh bola soni 20 nafar.

Mavzuning qisqacha mazmuni: Shakillarni bir-biridan ajrata olish qobiliyatini rivojlantirish va fikr qilib narsalar xosil qilishga o`rgatish. Shakillar xaqida bolalar bilimini mustahkamlash.

Mashg`ulot jarayonini amalga oshirish texnologiyasi.

Metod: Noan`anaviy, aqliy hujum, venn diogrammasi.

Shakli: kichik guruhlarda ishlash.

Jihozi: Har bir guruh uchun geometrik shakillari, katta kichik o`lchamda rag`bat kartochkalari.

Nazorat: og`zaki nazorat, kuzatish.

Baholash: Rag`bat kartochkalariga asoslanib qo`llab quvvatlash.

Kutilayotgan natija: Mashg`ulot oxirida bolalar geometric shakillardan narsalar yasashni o`rganadilar.

Mashg`ulotning maqsadi

**Ta`limiy maqsadi:** Maxsus shakillar to`plamidan foydalanib, namunadagi narsalarni xosil qilishga o`rganish. Geometrik shakillar xaqida bolalarni bilimni mustahkamlashni davom ettirish.

Tarbiyaviy maqsadi: Guruhlarda do`stona munosabatlarni tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi maqsadi: Bolalarni qo`l motorikasini rivojlantirish. Mashg`ulot davomida mavzuni bolalar tomonidan o`zlashtirishga erishish.

Mashg`ulot jarayoni texnologiyasi.

ishning nomi	Bajariladigan ishning mazmuni	metod	vaqt
1-bosqich. Tashkiliy qism.	1.Bolalar bilan salomlashish. 2.Ob-xavo, yil fasllari haqida suhbat.	Og`zaki suhbat o`tgazish	3
2-bosqich. O`tgan mavzuni takrorlash va mustahkamlash.	Hafta kunlari bilan tanishish mavzusini takrorlash va mustahkamlash.	Ta`limiy o`yin	4
3-bosqich. Yangi mavzu bayoni.	1.Bolalar bilan mavzu bo`yicha suhbat. 2. Maxsus shakillarni qiyoslash. 3.Dam olish daqiqasi.	Suhbat. Venn diogrammasi	8
4-bosqich. Yangi mavzuni mustahkamlash.	Bolalarni applikasiya mashg`ulotlari orqali bilimini mustahkamlash.	kichik guruhlarda ishlash."Tangram" metodi	7
5-bosqich. rag`batlantiri	Bolalarning faolligini etiborga olib rag`batlantirish. Mashg`ulotga xulossa yasash.	Og`zaki rag`bat kartochkalar bilan	2
6-bosqich. Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar.	Ota-onalar ishtirokida quyosh va qorbolani yasab kelish.	Ota-onalar ishtirokida	2

Mashg`ulotning borishi.

I bosqich.Tashkiliy qism

Tabiyachi: So`zlarning eng shirini

Ochiq aytsam sirini

Odob bo`g`in sharbatin

Qalb gavharin qimmatin

Kungillarni chog`etgan

Qaysi shirin so`z ekan

Assalomu alaykum bolajonlar

Bolalar: Assalomu alaykum

Tabiyachi: Kayfiyatlar qanday, a`lomi?

Bolalar: Yaxshi.

Tabiyachi: Bolalar menga aytingchi xozir o`lkamizda qaysi fasl?

Bolalar: Xozir o`lkamizda qish fasli

Tabiyachi: Xozir o`lkamizda qish fasli ekanini qanday bildingiz?

Bolalar: Qishda ob-havo sovuq, bahorda iliq, kuzda esa salqin, yozda issiq bo`ladi va qiushda palto, plashtlar keyiladi.

Tabiyachi: Juda to`g`ri endi”Qish”fasli haqida kim she`r aytadi?

Bola: Qor yog`diyu, qor yog`di.

Yumshoqqina qor yog`di

Daraxtu dalalarda

Tomda barobar yog`di

Tabiyachi: Balli Nargizasen ham she`r bilasanmi aytib berchi?

Nargiza: Guppa guppa yog`ar qor

Guyo kukda ini bor

Tomlar oppoq, er oppoq

Shox novdalar arg`imchoq.

Iroda: Mayli yog`sin oppoq qor

Oyoqdagi paypoq qor

Qishning ko`rki oq qordir

Yog`masa qish bekordir.

Tabiyachi: Mana bolajonlar she`rlarni juda yaxshi bilar ekansiz.

II bosqich. O`tgan mavzuni takrorlash.

Tabiyachi: Bolajonlar biz o`tgan mavzuda “Hafta kunlari” bilan tanishib va birin ketin kelishini aytibo`tgan edik.

- Aytingchi bir haftada nechi kun bor?
- 7 kundan iborat.

Tabiyachi: Kim menga hafta kunlarini birma bir sanab beradi?

Bola: Dushanba, seshanba, chorshanba, payshanba, juma, shanba, yakshanba.

Tabiyachi: Bugun haftani nechinchi kuni?

Bola: Bugun haftaning ikkinchi kuni seshanba.

Tabiyachi: Bolalar hozir men sizga topishmoq aytaman: Mazmunan eng kichik bo'lgan narsa-7oy, 7kun, 7 hafta?

Bolalar: 7 kun

Tabiyachi: Ofarin, barakallo! Endi sizlar bilan "Hafta kunlari" o'ynini o'ynaymiz. Bunda xar bir hafta kuni nomini sizlarning vakillaringiz o'ynab berishi kerak, demak orangizdan hafta kunlarini bajaruvchilar saylab olamiz. Ularning boshiga obodoklar taqamiz haftalarning birinchi kuni-dushanba ko'k rangli obodok, seshanba-yashil, chorshanba-pushti, payshanba-binafsha, juma-oq, shanba-sariq, yakshanba-qizil rangli bo'ladi. Endi hafta kunlarini joyini o'zgartiraman, sizlar ko'zlaringizni yumub turasizlar. Men esa kunlar joyini darhol o'zgartiraman. Qani bolajonlar kim topadi?

Bolalar chiqib hafta kunlarini joylashtiradi. O'yin 3-4 marta takrorlanadi.

III bosqich. Yangi mavzu bayoni.

Tabiyachi: Bolalar kelinglar bugun sizlar bilan matematika olamiga sayohat qilamiz. Bolajonlar bugun sizlar turli to'siqlar uchrashi mumkin. Siz bu tusiqlarni qiynalmasdan yengib o'tsangiz kerak, bilmagan esimizdan chiqqanlarini takrorlab olamiz. Mashg'ulotda kim faol ishtirok etsa rag'bat kartochkasi bilan rag'batlantiramiz.

Qani endi hamma ko'zlarini yumadi va 10 gacha sanamiz.

Bolalar:- 1,2,3,4,5,6,7,8,9,10.

Tabiyachi: Endi ko`zlarimizni ochamiz

Qaranglar bolalar biz qayerga kelib qolibmiz, endi biz siz bilan mevaazor atrofini ko`zatamiz

-Bu nima ekan bolalar

-Bu olma daraxti

Tabiyachi: Qani kim menga daraxtdagi qarg`alarni sanab beradi?

Bola: 1,2,3,4,5,6, qarg`a bor ekan.

Tabiyachi: juda to`g`ri.

Qarg`alarning ikkitasi uchib ketdi, daraxta nechta qarg`a qoldi?

Bola: 4 ta qarg`a qoldi.

Tabiyachi: Bolajonlar kelinglar sayoxatimizni davom ettiramiz. Voy bolajonlar qayerdan chiqib qoldik?

Bolajonlar: Savdo do`koni oldidan

Tabiyachi: Bolajonlar matematika olamida ham savdo do`koni bor ekan. Savdo qilishni bilasizlarmi?

Tabiyachi: Qani bolajonlar xarid qilib chiqinglar. Men sizlarni tekshirib turaman, bolalar savdo qilishni juda yaxshi bilar ekansizlar.

Bolalar yaqinda qanday bayramni nishonlaymiz?

Bolalar: Yangi yil bayrami.

Qani yangi yil haqida kim she`r biladi?

Bolalar: Dala dashtda tindi ish

Mehmon bo`lib keldi qish

Qish emas u qorbobo

Sovg`alari bor bobo.

Tabiyachi: Qaranglar bolajonlar endi geometrik shakllar olamiga kelib qolibmiz.

Aziz bolajonlar bugun men sizlarga geometrik shakllar malakaati haqida hikoya aytib beraman. Bir bor ekan, bir yo`q ekan faqat geometric shakllar yashaydigan mamlakat bor ekan. Bu mamlakatda barcha geometric shakllar tinch va totuv yashashar ekan. Uchburchak shaklining uyi uchburchak, doiraniki doira, kvadaratniki, kvadrat. Ovalniki oval shaklda ekan.

Bu mamlakatda uchburchak shakli podsholik qilar ekan. Uning boshchiligida turli bayramlar tantanalar o`tkazilin turar ekan.

Qaranglar bolalar. Uchburchakning nechta burchagi bor?

Bolalar: Uchburchakning uchta burchagi bor

Tabiyachi: To`rtburchakning nechta burchagi bor?

Bolalar: To`rtburchakning nechta burchagi bor

Tabiyachi: Uchburchakning rangi qanaqa?


Bolalar: Rangi yashil

Tabiyachi: To`rtburchakning rangi qanaqa?

Bolalar: Rangi qizil.

“VENN

DEOGRAMMASI”metodi



Hozir hammamiz o`rnimizdan turib tetiklantiruvchi mashqni ijro etamiz.

Salom oltin quyoshcham

Salom moviy osmoncham

Salom quvnoq shamolcham

Salom jajji hihollar

Bu olamda mangusiz

Bolalaik quvonchisiz

Bolalar she'rni takrorlab harakatlarni ijro etadilar. Tetiklantiruvchi mashqdan keyin

IV bosqich Yangi mavzuni mustahkamlash

Tarbiyachi bolalarni kichik guruhlariga bo'lish uchun, har bir bola turli geometrik shakllar olib, shakllarga qarab borib, o'z stuliga o'tiradi.

Uchburchak olgan bola, uchburchak qo'yilgan stolga, doira olgan bola, doira qo'yilgan stolga, shunday qilib bolalar 4 guruhga bo'linishadi.

Tabiiyachi:Endi hozir men sizlarga jumboqli she'r aytaman

1. Boshi boru-oxiri yo`q

Ketaverar bir yerda.
Oxiriga yetay dema
Yetolmaysan ming yilda.

(Doira)

Bola: Topishmoqning javobi doira

Tarbiyachi:

To`rt burchagi to`g`ri burchak
O`zi to`rtta tomoni bor.
Hamma tomoni teng uni
Bu nimadir aytinglar-chi nomini

Bolalar: Bu to`rtburchak shakli

Tabiyachi: Yana kim topishmoq yoki she`r aytadi.

Bola: O`rta uchi, uchta burchak

Va yana uchta tomon
Uchovi qo`shilishib,
Yashaydi omon.

Bolalar: Uchburchak

Tabiyachi: Bolalar endi shartli topshiriq bilan tanishib oling.

Har bir guruh turli geometrik shakllardan har xil narsalar yasaydi.

1- guruh "Cho`chqa" rasmini yasaydi

2- guruh "Maymuncha" rasmini yasaydi

3- guruh "Quyov" rasmini yasaydi


4-guruh "Archa" rasmini yasaydi

Tabiyachi: Bolalar oldin men sizlarga qaysi shakldan nima yasashni ko`rsatib beraman. Mana 4 ta har xil kattalikda uchburchak va 1 ta doira shakli. Bu shakllardan cho`chqa yoki maymuncha yasashimiz mumkin.

E`tibor bering cho`chqa shaklini yasash qiyin emas. Shakllarni huddi tasvirdagiday qo`ying. Huddi tasvirdagiday bo`lishi kerak chunki, tasvirda va sizlarda bir xil geometrik shakllar ularning o`lchamlari ham bir xil.



2- guruh e'ribor beringlar katta burchakka doirani birlashtiramiz, doiraga eng kichik ikkita uchburchakni birlashtiramiz maymunchanining quloqchalari hosil bo`ladi. Katta uchburchakning o`ng tomoni pastiga oxirgi uchburchakni qo`yamiz natijada mushukchamizni dumi xosil bo`ladi. Uchburchakning pastiga ikki doirani yopishtiramiz mushukchanning oyoqchalari paydo bo`ldi va mushukchamiz ham tayor.



3 guruh. Endi quyonchani biz tanasini ovaldan, boshini doira shaklidan yopishtiramiz. Mana oldimizga mayda ovol shakillarini ham bor qo`li, qulog`iv a oyoqchalarini xam yopishtiramiz. Quyonchani shakli tayyor bo`ldi bolajonlar.



4 guruh. Endi bolajonlar archani uchburchak shakildan tayorlaymiz. Katta uchburchakni olib yopishtiramiz, 2chi uchburchakni 1chisini teppasiga yopishtiramiz. Uchinchi uchburchakni ikkinchisining tepasiga yopishtiramiz. Archa daraxtini tasviri tayyor bo`ldi. Katta uchburchakning pastiga to`rtburchak yopishtiramiz.



Tabiyachi: Bolajonlar sizlar maxsus shakllar to`plamidan turli narsalarni yasashni o`rganib oldik.

V bosqich.

Tabiyachi: Endi o`yin o`ynaymiz.

O`yinning nomi “Shakllar yurishibdi”

O`yinning borishi: Agar tarbiyachi shakllar yurishibdi desa bolalar yuradi. Bolalarning qo`liga shakllar beriladi shakllar katta o`yda desa kimda qanday shakl bo`lsa , xuddi shunday shaklning ichiga keradi. Shakllar o`yinga chiqing desalar bolalar katta shakldan chiqib o`ynab yuradilar. Shakllar kichik o`ychaga desalar kimda qanday shakl bo`lsa o`sha kichik shakllarga turadilar. Uchburchaklar kichik uchburchaklarga turib oladi. Shakllarni almashtiringlar deyilsa bolalar shakllarni almashtirishadi. Bolalar xoxlagancha o`yinni davom ettiradilar. O`yindan so`ng bolalarni rag`batlantiriladi va rag`bat kartochkalar beriladi.

VI bosqich.

Tabiyachi bolalarga ota-onalari yordamida shakllardan qorbola quyosh yoki mashina yasab kilishlari kerak.

Xulasa

Xulosa qilib aytganimizda soddamatematika orqali bolalar son va sanoq, geometrik shakillar, baqt va fazo kattaliklar haqida bilimlarga ega bo'ldilar. Bu bilimlar yordamida bolalar idrok qilishdagi obektlarning xususiyatlarining analiz va sintiz qilish, taqqoslash va umumlashtirish eng soddabog'lanishlar va ular orasidagi munosabatlarni tushinib oladilar.

Ilk soddamatematik tasavvurlarni shakllantirish natijasida bolalarda:

- Geometrik shakl va predmitlarning shakli haqida tasavvur shakllanadi.
- Fazoviy munosabatlarni tushuntirish va fazoda muljal olish kunikmalarini xosil qilishda.
- Miqdor kattalik haqida tasavvur xosil qilish.
- Son va sanoq bilimlar berish, birinchi va ikkinchi o'nlik ichida miqdoriy munosabatlar haqida tushunchalar xosil qilish.

Mashg'ulotlar davomida bolalar mustaqil ravishda amaliy topshiriqlarni bajarib, turli interfaol usullar yordamida topshiriqlarni bajarib, o'yinlar o'ynashadi.

Men bugun mashg'ulotga xulosa qilib aytishim mumkinki bolalarga geometrik shakllardan namunadagi narsalarni yasashga qiziqish paydo bo'ladi.

O'ylaymanki barcha tarbiyachilar zamonaviy pedtexnologiyalar asosida bolalarga ta'lim –tarbiya berishga xarakat qiladilar mening qisqacha xulosam shu.